

## Yapon Va O'zbek Adabiyotida Qo'llangan „Ochmoq“ Fe'lining Ishlatilish Ma'nolarining Qiyosiy Tahlili

*Yunusova Ziyoda Zayniddin qizi*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** O'zbek va yapon tillari bir til oilasiga kiruvchi tillar turkumidan bo'lmasa ham, grammatik va leksik qurilish jihatida o'xshash hisoblanadi. Ushbu maqolada keng qo'llaniluvchi fe'llardan biri "akeru-ochmoq" fe'lining leksin xususiyatlari va semantik maydoni, ishlatilish arealari ko'rib chiqilgan. Bugungi kunda qo'llanilayotgan ma'nolarini aniqlash maqsadida o'zbek va yapon tilida yozilgan mashhur asarlar tadqiq manbasi etib tanlangan hamda "ochmoq-akeru" fe'li Kudo nazariyasiga ko'ra ma'noviy guruhlariga ajratilgan.

**Kalit so'zlar:** akeru, ochmoq, Ikki eshik orasi, Umibeno Kafuka, Ufq, tashqi dinamik fe'llar, ichki psixo-holat fe'llari va holat fe'llari.

O'tgan yuz yillikning to'qsoninchi yillaridan boshlab o'zbek yaponshunosligi yuzaga kela boshladi. O'tgan yigirma yilga yaqin vaqt mobaynida bir necha yaponcha-o'zbekcha lug'atlar va o'quv qo'llanmalari yaratildi. Biroq, yapon tili tadqiqiga bag'ishlangan biror yirik plandagi monografik tadqiqotlar hozirga qadar yetarli darajada oshirilganicha yo'q. Bu o'zbek yaponshunosligi endi- endi o'z yo'lini belgilayotganidan darak beradi. Shunga qaramasdan, yapon filologiyasi Yaponiya, Evropa, Amerika, Rossiya, Xitoy tilshunosligining eng taraqqiy etgan yo'nalishlaridan biridir. Mazkur tilshunoslik maktablarida yapon tilining turli sathlariga bag'ishlangan ko'plab yirik tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, fe'llar semantikasi bilan bog'liq yo'nalish ham doimo tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa, mazkur yo'nalishda yapon tilshunoslaridan Shiraiwa va Hiroyuki (2000), Petri Mikael Niemela (1999), Sunakawa Yuriko (2017), Iwade Yukino (2017) tadqiqotlarini alohida tilga olish mumkin. Ushbu ilmiy izlanishlarda yapon tilidagi fe'llar semantikasi bilan bog'liq asosli mulohazalar bildiriladi. Shuningdek, yapon tilidagi fe'llar semantikasining xos xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan.

Umuman, tilshunoslikda semantika, xususan, fe'llar semantikasi bilan bog'liq yo'nalishga qiziqish anchayin oshganligi kuzatilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekistonning jahon siyosat sahnasidan mustahkam o'rin egallashi an'anaviy sharq tillari qatorida xitoy, koreys va yapon tillarining ham til birliklarini tadqiq etish imkonini berdi. Chunonchi, o'zbek yaponshunosligi sharqshunoslikning rivojlanib kelayotgan sohasi sanaladi.

Ayonki, har bir xalqning faoliyati, turmush tarzi, yurish-turishi leksikasida o'z ifodasini topgan bo'ladi, ayniqsa, fe'llar bu borada anchayin faol hisoblanadi. Shuning uchun fe'llar boshqa leksik birliklarga qaraganda til va nutqning faol ishtirokchisi sanaladi. Jumladan, „akeru, hiraku-ochmoq“ fe'llari semantik-funksional imkoniyatlarining kengligi bilan alohida e'tiborni talab qiladi.

O'zbek adabiyotining yetuk nosirlaridan biri Said Ahmad ning «Ufq» romanida (1964) ikkinchi jahon urushining olovli yillarida o'zbek dehqonlarining front orqasida ko'rsatgan mehnat qahramonliklari atroflicha hikoya qilinadi. «Ufq» trilogiya bo'lib, yozuvchi unda urushdan oldingi, urush davri va undan keyingi davr hayotiy muammolari haqida bahs yuritadi. «Ufq» romanida yozuvchi xalqimiz turmushining uch muhim sanalari bilan bog'liq bo'lgan davrni qalamga olgan. Ushbu davrlarda yashagan xalqimizning turmush tarzi, orzu-o'ylari va dardlarini aks ettirish bilan bir qatorda o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odatlar va o'zbek xarakterini jonli bo'yoqlarda go'zal tasvirlangan.

<sup>1</sup>Japan Digital University, Boshlanig'ich yapon tili bo'limi o'qituvchisi



Shu o'rinda "Ufq" trilogiyasida qo'llangan "ochmoq" fe'li va uning leksik xususiyatlari ko'rib o'tamiz:

"ochmoq" fe'lining ishlatilishi	Fe'lining semantik ma'nolari
1.Jannat ko'zi ochildi (9-bet)	
2.Bola chochib ko'zini ochdi (9-bet)	
3.Kiryapman eshik ochiq qolmasin, tur (12-bet)	
4.U qiz tanlab, tanlab yoshini o'tkazib qo'ygan oxiri qiqni qoralab qo'yganda uylan ozi ochiqqina har gapida maqol yoki matal qo'shib gapiradi so'zamol kishi edi (13-bet)	
5. och-nahor borasimi,qatlama qilgan edim, bir tishlam bo'lsa ham tamaddi qilib oling (14-bet)	
6.Har qanday to'polon qilmasin,har qanday qiliq qilmasin, dadasi ko'ziga qarasa shashti qaytar, churq etib og'iz ochmasdi (18-bet)	
7.Kiyim-boshlari yirtilib,yelkali ochib qolar edi (19-bet)	
8.Boshga bitgan balo bo'lding yaramas dedi-yu eshikni oyog'I bilan ochib havotirga kirib ketdi (23-bet)	
9.Tepasidan kapalak uchib o'tsa ko'zini ochidi (31-bet)	
10. Ochmikn to'qmikan (31-bet)	
11.Ammo g'iring deb og'iz ochmaysan (33-bet)	
12.Og'iz ochishga chog'lanib xotiniga qarab xo'mraydi (34-bet)	
13. Och qolarmidi (35-bet)	
14.Kapoti ochiq turib "Gazik" radiator og'zi shiddat bilan zarar chiqardi (37-bet)	
15.Azizxon begona odamga dostonimni ochib nima qilaman, degan o'y bilan o'tirardi (40-bet)	
16.U ko'zini ochmay gapirdi (40-bet)	
17. "Afsonaviy Pahlavon" nihoyatda ochiqqan ekan (42-bet)	
18. Azizxon cholni aldab bo'lmasligini ochig'ga ko'chdi (45-bet)	
19.Yulduzlar birin ketin ko'z ochardi (46-bet)	
20.Chol katta kelinini chaqirib mehmon bola bilan menga ochiq havoga joy qilib ber (46-bet)	
21.Azizxon ochiq cho'lda chol bilan yonma-yon yotarkan (46-bet)	
22.Dunyoda shunaqa ochiq qo'l , mehmon un bog'rini ochadigan kishi borligidan tasirlanib ketdi (47-bet)	
23.Mana ko'zini ochishi bilanoq qancha vaqt bo'ldi (47-bet)	
24.Daryo betidagi samovarni/= o'zi/= ochishi bb...(51-bet)	
25.Ko'z ochirmaydi ochirmaydi g'uv g'uv chuvirin (51-bet)	
Har yili bozorda sholikor dehqon jarlikdagi qamishini kuydurib sholipoya ochadi(52-bet)	
27.Chol tishsiz og'zini ochib kuldi (54-bet)	
29.Ko'prik naryog'ida ochiq maydonda ... (77-bet)	
30. Ochiq go'rga ketamanmi (77-bet)	
31.Yosh polvon ochiqchasiga o'tdi (78-bet)	
Lufinisa choyshabni ochib tashlar (152-bet)	
50.Keksaroq soch farqini ochib odamiygina kiyintirib konsertga jo'natib ketishdi (155-bet)	
51.Ko'z ochgan chechaklar bag'rimda (159-bet)	
52.Farqingni sal chap taraf och ..(162-bet)	
53.Ertalab ko'zini ochganda darrov yoniga qaradi (163-bet)	



54.Lutfinisa bu ochiq ko'ngil (163-bet)	
55.Qurilish boshlig'i majlisni ochib nima dedi (169-bet)	
56.Lutfinisa ko'zi ochiq tanasi hali sovumadi (174-bet)	
57.Azixxon kamgap bo'lib qoldi, biron bilan ochilib gaplashmas..(183-bet)	
58.Eshik ochiq ichkaridan nimanidir tiqqillagani eshitalardi (191-bet)	
59.devor tagidagi o'choqda qozon tovog'i ochiq qoldi (192-bet)	
60.Agar o'g'li bir nima deb og'zini ochgudek bo'lsa..(193-bet)	
61.Eshik qulfi ochildi (194-bet)	
62.Shamol esishi bilan quruvchi pashshaxonani ochib tashlab (205-bet)	
63.Uchastkada ochir (215-bet)	
64.Uchg'o'zg'ongacha 14km yo'l ochib ... (220-bet)	
65.U qaynisi shu tarafda to'qayga yo'l ochib qovun ekkan (245-bet)	
66.Qamish buzib, ochilgan yurt bo'lsa kerak ... (245-bet)	
67.Och edi bir hovuch suv to'kildi (245-bet)	
68.Qorin och (245-bet)	
69.Boldirigacha ochib, Ipak paypog'ini yig'ib tur....(254-bet)	
70.Azixxon gazeta ichki sahifasini ochdi (256-bet)	
71.Goho yengil shamol bog' ustidan uni ochiq dalaga qarab surib ketadi (256-bet)	
72.Yigit ochiq ko'ksiga issiq shamol yurdi (259-bet)	
73.Chol bu gap og'zini ochguncha angrayib qoldi (280-bet)	
74.Ochsang-chi nima bo'ldi (290-bet)	
75.Quchoq ochib ko'risharkan (290-bet)	
76.Aza ochishdi (295-bet)	
77.Frontda ko'rganimni aytsam og'zing ochilib qoladi (308-bet)	
78.Tog'a telegramma xatini ochib o'qiy boshladi (317-bet)	
79.Ikromjon eshikdan chehrasini ochib kirdi (326-bet)	
80.Konglini ochib tursa-yu (328-bet)	
81.Endi ocharchilik bo'ladi (330-bet)	
82.Biz bu yerda mehnat frontini ochyapmiz (345-bet)	
83.Ammo hech kim og'iz ochib gapirmas (349-bet)	
84.Urishga kim boladi gap ochilsa (349-bet)	
85.Odamga ochiq yuz bilan qaraydi (352-bet)	
86.Tog'a bilan ochilib gaplashadi (376-bet)	
87.2 tup lol nozik novdali och pista mag'zidek bargchaga o'raldi (377-bet)	
88.Ochiqroq ayting (392-bet)	
89.Yaktagi ochiq yoqqan (396-BET)	
90. ochiq havo kam berk (406-bet)	
91. ochiq oshkora tol tagiga ketishdi (445-bet)	
92.Chap tarafdagi ochiq deraza kamsamol k kabineti (447-bet)	
93.Kalit bilan eshikni ochdi (453-bet)	
94.choqir ochiq pardasi cholga qarab oldi (459-bet)	
95.lalda nina bo'lgan bo'lsa barini ochiq yozdim (469-bet)	
96.Dadasi rayxonga suv ochib ... (489-bet)	
97.Nahotki shul bari ko'zini ochmas bo'lsa (491-bet)	

**Jadval 1**



- “Umibeno Kafuka” asarida qo’llangan fe’llar tahliliga ko’ra asarda “akeru” fe’lining bir qncha o’rinlarda ilk ma’noda (門を開ける、ドアを開ける) ishlatilgan bo’lishiga qaramay, (目を開ける) singari ma’no kengayishi asosida qo’llanganiga ham guvoh bo’lishimiz mumkin.
- asarning 55 o’rnida “ochmoq” fe’lidan foydalanilgan:
- og’zi ochilmoq (7)- to’xtovsiz, ko’p gapirmoq
- baxti ochilmoq- duo qilmoq
- ochilib ketmoq- go’zallashmoq, ko’rk bermoq,
- havo ochilmoq- osmon bulutlardan tozalanmoq
- boshi ochiq, ora ochiq, yuragini ochmoq kabi frazeologik birlik sifatida va 3 o’rinda “darvozani ochmoq” shaklida o’zining ilk ma’nosida, “ko’zini ochmoq” 3, jinoyatni fosh etmoq ma’nosida 1, yangi faoliyat boshlamoq ma’nosida 2(ariq ochmoq, maktab ochmoq), gullamoq ma’nosida esa 3 o’rinda qo’llangan. Va qolgan qo’llanish o’rinlari fe’lining ilk ma’nosi asosida foydalanilgan.

“Ufq” trilogiyasining 97 o’rnida “ochmoq” fe’lining qo’llangani aniqlandi. Semantik tahlilga ko’ra, “Ikki eshik orasi” asaridan farqli o’laroq, “rayhonga suv ochmoq”, “ochiq yozmoq”, “ochilib gaplashmoq”, “ocharchilik”, “aza ochmoq”, “qorin ochmoq”, “qozon tovog’I ochiq qoldi”, “ochiq mozor”, “ochiq joyga joy to’shamoq”, “yulduzlar ko’z ochdi” kabi turli xil ma’nolarda ishlatilgan degan xulosaga kelindi. “ochmoq” fe’lining izohli lug’atda keltirilgan 18 xil ma’nosidan tashqari, iboralar va “yulduzlar birin-ketin ko’zini ochdi” ya’ni paydo bo’ldi singari yozuvchining so’z mahoratini ko’rsatib beruvchi yangi jumlar bilan ham qo’llangani aniqlandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. 春樹村上「海辺のカフカ」. – 日本: 角川書店、2006. – 270 p.
2. O’tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. – Toshkent: Sharq、 2010. – 297 p.
3. Said Ahmad “Ufq”. – Toshkent: Sharq, 2012. – 310p
4. Aoki K. Ninchiimironno tetsugaku. – Japan: Ooshukanshoten, 2002. –157 p.
5. Higashi M. Doushino Imi. – Japan: Tokyo Gaikoku daigaku, 2011. – 76 p.
6. Kinsui U. Imito bunmyaku. – Japan: Iwanamishoten,2002. – 203 p.
7. Otsuka H. Haruki Murakami “Umibeno Kafuka” . – Kobe: Yamatedaigaku, 2007. – 98 p.

